

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya,
atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o‘zgarishi vaziri o‘rinbosari**



J. Kazbekov

2025 yil “18” iyul

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi doimiy faoliyat yurituvchi ekspertlar
Kengashining
5 - son
yig‘ilish **Bayoni**

2025-yil 18-iyul

Toshkent shahar

Raislik qiluvchi:

J. Kazbekov

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya,
atrof-muhitni muhofaza qilish va
iqlim o‘zgarishi vaziri o‘rinbosari

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan raislik qiluvchi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri o‘rinbosari J.Kazbekov Kengash yig‘ilishini ochib, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, qurilish va atrof-muhit muhandisligi kafedrasida professori Z.Sattorov, “TIQXMMI” MTU “Ekologiya va suv resurslarini boshqarish” kafedrasida katta o‘qituvchisi, Texnika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori R.Razzaqov, Sog‘liqni saqlash vazirligi SEO va JS qo‘mitasi, sanitariya gigiyena boshqarmasi bosh mutaxassisi A.Ko‘charov, Toshkent davlat agrar universiteti Ekologiya va botanika kafedrasida mudiri-dotsent K.Buxorov, Davlat ekologik ekspertizasi markazidan mas‘ul xodimlar ishtirok etayotganligi va xulosa qabul qilish uchun yetarli kquorum borligini ma‘lum qilib, kun tartibini e‘lon qildi.

K U N T A R T I B I:

1) O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi, Toshkent viloyati, Toshkent tabiatni muhofaza qilish prokuraturasining so‘rovi bo‘yicha xulosa berish masalasi:

a) 2025-yil 28-iyundagi 15/M46-25-son TALABNOMAsida Qibray tumani, “Ilg‘or” MFY hududidagi “Qizil Sharshara” xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatiga qarashli yer maydoniga qurilish chiqindilari to‘kilganligi holati bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilayotganligi va shirkatga tegishli yer maydonga qurilish chiqindilari to‘kilishining oqibatlarini har

tomonlarni o'rganib, ekologiyaga va atrof-muhitga nisbatan qanday salbiy oqibatlariga sabab bo'lishi yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa berilishi so'ralgan.

“Davlat ekologik ekspertizasi markazi” Toshkent viloyati filialiga Toshkent viloyati, Qibray tumani, “Ilg'or” MFY, hududida “QIZIL SHARSHARA” MChJ tomonidan bo'sh yer maydonini rekultivatsiya etish va meliorativ jihatdan yaxshilashning “Atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot” loyihasiga **2024-yil 16-avgustda 01-02/11-1838-son bilan ijobiy xulosasi taqdim etilgan.**

b) 2025-yil 11-iyuldagi 10.7/54M-25-son murojaatida Toshkent tumani, “Sabzavot” MFY hududida fuqarolarning o'ziga tegishli texnikalari yordamida qurilish chiqindilari tashlaganligi holati bo'yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilayotganligi va ushbu yer maydonga qurilish chiqindilari tashlanishi qanday oqibatlariga olib kelishi hamda atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilganligi holatlari yuzasidan xulosa berilishi so'ralgan.

2) “UZSUNGWOO” MChJ shaklidagi QK tomonidan **yengil avtomobillar kuzov qismining shtamplangan butlovchi qismlarini ishlab chiqarish** faoliyatining texnologik jarayonini “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” DMning Farg'ona viloyati filiali xodimlari tomonidan korxona faoliyatini joyiga chiqib o'rganish natijalari bo'yicha tuzilgan o'rganish dalolatnomasi hamda markaz tomonidan “Davlat ekologik ekspertizasidan o'tkaziladigan faoliyat turlarining ro'yxati”ga muvofiq obyekt faoliyatining atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I-toifa 17-bandiga (Mashinasozlik sanoati (aviasozlik, vagonsozlik, avtomobil, traktor, motor ishlab chiqarish va boshqalar) mansubligi to'g'risidagi javob xatiga norozilik bildirib, ushbu masala ekspertlar kengashiga qo'yilishi va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning toifasini qayta ko'rib chiqish masalasi yuzasidan 2025-yil 16-iyunda 14/01-19-309/1-son murojaat xati.

“UZSUNGWOO” MChJ shaklidagi QKning murojaatiga asosan, korxona faoliyati bo'yicha atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning toifasini belgilash.

3) “NEOLIT” XK tomonidan **2025-yil 4-iyunda 5-son** murojaatiga asosan Qibray tumani, “Salar” qo'rg'oni, “Navro'z” MFY, B.Akbarova ko'chasi 35-uyda joylashgan toshga ishlov berish sexi (marmar plitasi, toshlarni qayta ishlash) faoliyati atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning qaysi toifasiga mansubligi bo'yicha, “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” tomonidan **2025-yil 25-mayda 03-03/1-550-son bilan berilgan javob xatida belgilangan toifani** Markaz xodimlari tomonidan qaytadan chuqur tahlil qilinishi natijasida, marmar, granit kabi tabiiy toshlarga ishlov berish, kesish, ularni yelim orqali to'rga yopishtirish, keyin quritish uskunasi quritilishi natijasida qurilishda foydalaniladigan pardozlash materiallarini ishlab chiqarish faoliyati **atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III-toifa, 31-bandiga** (Qurilishda foydalaniladigan pardozlash materiallarini ishlab chiqarish) mansubligi bo'yicha belgilangan toifaga norozilik bildirilgan.

“NEOLIT” XKning murojaatiga asosan, korxona faoliyati bo'yicha atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning toifasini qayta ko'rib chiqilishi so'ralgan.

4) Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarorida shaharsozlik obyektlari, ko'p qavatli uy-joy qurilishi obyektlari bo'yicha 2-ilova, 10-bandida “Davlat ekologik ekspertizasi markazi quyidagi obyektlar

bo'yicha" jumladan aholisi soni 50 ming kishidan ortiq bo'lgan loyihalashtiriladigan obyektlarning shaharsozlik hujjatlarini va 11-bandida **"Hududiy davlat ekologik ekspertizasi markazlari** quyidagi obyektlar bo'yicha" aholisi soni 50 ming kishi va undan kam bo'lgan obyektlarning (shaharchalar, turar joy dahalari) shaharsozlik hujjatlarini davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi belgilangan.

Davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazish uchun taqdim qilinayotgan arizalarni ko'rib chiqish va qabul qilish jarayonida ko'p qavatli uy-joy qurilishi masalasida bahsli savollar yuzaga kelmoqda, shu masalalarga oydinlik kiritish maqsadida, **hududda yashovchi aholi sonini belgilashda qaysi hududning aholi sonidan kelib chiqib** (shahar, tuman yoki MFY) **belgilanishi** hamda bitta hududda **nechta ko'p qavatli uy qurilishini** shaharsozlik obyektlari deb qabul qilinishiga aniqlik kiritish masalalari.

Kun tartibidagi birinchi masala "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" Toshkent viloyati filialiga Toshkent viloyati, Qibray tumani, "Ilg'or" MFY, hududida **"QIZIL SHARSHARA"** MChJ tomonidan bo'sh yer maydonini rekultivatsiya etish va meliorativ jihatdan yaxshilashning "Atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot" loyihasiga **2024-yil 16-avgustda 01-02/11-1838-son bilan berilgan xulosasi** yuzasidan Markazning Toshkent viloyati filiali yetakchi eksperti Sh.Sariboyev tushuntirish berdi.

Aniqlanishicha, Davlat ekologik ekspertizasi markazi DM Toshkent viloyati filialiga **"QIZIL SHARSHARA"** MChJ Qibray tumani, "Ilg'or" MFY hududida "bo'sh yer maydonini rekultivatsiya etish va meliorativ jihatdan yaxshilash va uni qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqlikka topshirish mo'ljallangan yer uchastkasi 77 700 m², bo'sh yer maydonining "Atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot" loyihasi hujjatlarini taqdim etgan.

Mazkur loyiha hujjatlari "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" DM Toshkent viloyati filiali yetakchi eksperti Sh.Sariboyev tomonidan o'rganilib, berilgan xulosada hududga maishiy chiqindilarni tashlamaslik (to'planishiga yo'l qo'ymaslik choralari) chuqurlarni to'ldirishda faqat kimyoviy moddalari bo'lmagan hamda qurilish chiqindilarisiz tuproq yoki qum-shag'al aralashmasidan foydalanishi shartigi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida Ekologik ekspertiza buyurtmachisining majburiyatlari belgilangan bo'lib, davlat ekologik ekspertizasi xulosasida ko'rsatilgan talablarni bajarishi shartligi va 26-moddasida Ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik ko'rsatilgan bo'lib, Ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qaroriga 2-ilova 57-bandida Davlat ekologik ekspertizasi xulosasining amal qilishi, sud qarori asosida buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda to'xtatilishi ko'zda tutilgan.

Muhokama etilayotgan masala yuzasidan ekologiya vazirligi xodimi **X.Pirov** fikr bildirib, ko'rilayotgan hudud 2025-yil mart oyida o'rganilganda, hududda

zavod qurilishi maqsadida tegishli tashkilotlar bilan tuproq va qum-shag'al aralashmalarini olib kelgan holda yerlarni tekislash ishlarini amalga oshirish o'rniga boshqa hududlarda amalga oshirilayotgan qurilishlardan hosil bo'lgan qurilish chiqindilarini jismoniy shaxslardan qabul qilib, ushbu maydonda qurilish chiqindilari to'kilayotganligi aniqlanganligi, bu holatlar bilan qurilish chiqindilarini noqonuniy joylashtirilishiga shart sharoit yaratilganligi va ushbu qurilish chiqindilarining tarkibi o'rganilmasdan turib qabul qilinganligi va bu joyda joylashtirilganligi ushbu hududning atrof tabiiy muhitga tiklab bo'lmaz darajadagi zarar yetkazilgan.

Amaliyotda bu kabi faoliyatlarni amalga oshirishda asosan yer maydonining ustki unumdor qatlami (20-30 smgacha) belgilangan tartibda maxsus joyga ajratib olinib, alohida joyda saqlanadi, undan so'ng yerning landshaft holatidan kelib chiqqan holda tekislash ishlari amalga oshiriladi, bunaqa vaziyatlarda chang bostirilishi, qurilish va maishiy chiqindilarni noqonuniy joylashtirilishi oldi olinishi kabi masalalarga e'tibor beriladi.

Markazning bosh eksperti **M.Malishev** va komissiya a'zolari Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, qurilish va atrof-muhit muhandisligi kafedrası professori **Z.Sattorov**, "TIQXMMI" MTU "Ekologiya va suv resurslarini boshqarish" kafedrası katta o'qituvchisi, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori **R.Razzaqov**, Sog'liqni saqlash vazirligi SEO va JS qo'mitasi, sanitariya gigiyena boshqarmasi bosh mutaxassisi **A.Ko'charovlar** ushbu holat bo'yicha quyidagi fikrlarni bildirishdi:

Qurilish chiqindilarini unumdorligi past (masalan, sho'r, toshli yoki qumli) yerlarga noqonuniy ravishda joylashtirish-jamoatchilik, qonunchilik va tabiat uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. **Bu holatda atrof-muhitga quyidagi zararlar yetkaziladi:**

1. Yer resurslarining ifloslanishi - qurilish chiqindilari (sement, beton, temir, yog'och, plastik va boshqalar) yerda chirimaydi va uzoq muddat saqlanib qoladi. Ular tarkibida og'ir metallar, kimyoviy moddalar bo'lishi mumkin, bu moddalar yerning zaharlanishiga olib keladi. Bu yerda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish deyarli mumkin bo'lmay qoladi.

2. Yer osti suvlari va suv manbalarining ifloslanishi - yomg'ir yoki yer osti suvlari chiqindilar orqali ifloslanishi mumkin. Bu ichki suv ta'minoti va ichimlik suv sifatining yomonlashishiga sabab bo'ladi. Natijada odamlar va hayvonlar uchun xavf tug'iladi.

3. Flora va faunaga ta'siri - qurilish chiqindilari tabiiy muhitda o'sadigan o'simliklar va yashaydigan hayvonlar uchun muvofiq bo'lmagan muhit yaratadi. Ba'zi chiqindilar havoni ifloslantirib, havodagi kislorod miqdorini pasaytiradi. Qushlar, kemiruvchilar va kichik hayvonlar o'z joylarini yo'qotadi va yo'qolib ketishi mumkin.

Amaliy misollar (O'zbekiston va dunyoda):

O'zbekistonda - 2023-yilda Farg'ona viloyatida noqonuniy tashlangan qurilish chiqindilari tufayli yaqin atrofdagi suv inshooti ifloslangan, aholi ichimlik suvi bilan ta'minlashda muammolar yuzaga kelgan.

Toshkent viloyatida ayrim hududlarda chiqindilardan “yangi tog‘lar” paydo bo‘lgan, bu yerda yer osti suvlari tarkibida nitratlar miqdori ortib ketgan.

Jahon misollari:

Xitoy va Hindistonda qurilish chiqindilarini nazoratsiz tashlash sababli yirik daryolar ifloslangan, ayrim yerlar fermerlar tomonidan qayta ishlab bo‘lmaydigan holatga kelgan.

Yevropa Ittifoqida bunday chiqindilarni maxsus litsenziyasiz tashlagan kompaniyalarga million yevro miqdorida jarimalar solinadi.

Kengash, “Qizil Sharshara” MChJ tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozimligini bayon qilishdi:

- hududni chiqindilardan tozalash va rekultivasiya qilish uchun o‘rnatilgan tartibda ekologik ekspertizasidan o‘tkazish hamda belgilangan tartibda davlat ekologik ekspertizasining xulosasini qaytadan olish;

- hududga chiqindilarni to‘kish uchun sharoit yaratganligi va to‘kilgan chiqindilar uchun noqonuniy haq olganligi uchun javobgarlikka tortish kerakligi;

- xulosada belgilangan talablarga amal qilmasdan qurilish chiqindilarni to‘kish natijasida shu atrofdagi o‘simlik va hayvonot dunyosiga, yerlarga, yer osti va yer usti suvlariga, atmosfera havosiga shuningdek, atrofdagi aholiga hisoblab bo‘lmaydigan darajada zarar keltirgan;

- Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori talablari asosida 2024-yil 16-avgustda Qibray tumani, “Ilg‘or” MFY, hududida joylashgan “Qizil Sharshara” MChJga 01-02/11-1838-son bilan berilgan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganligi sababli, mazkur davlat ekologik ekspertizasi xulosasini o‘rnatilgan tartibda bekor qilish.

Muhokama etilayotgan masala yuzasidan “Qizil Sharshara” MChJga nisbatan davlat ekologik ekspertizasi markazi Bosh direktorining birinchi o‘rinbosari **T.Aytmuratov** yuqorida aytilgan fikrlar bo‘yicha ovozga qo‘ydi va Ekspertlar kengashi a‘zolari taklifini bir ovozdan ma‘qullashdi.

Toshkent tabiatni muhofaza qilish prokuraturasining so‘rovi bo‘yicha 2025-yil 11-iyuldagi 10.7/54M-25-son murojaatida Toshkent tumani, “Sabzavot” MFY hududida **fuqarolarning o‘ziga tegishli texnikalari yordamida qurilish chiqindilari** tashlaganligi holati bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilayotganligi va ushbu yer maydonga qurilish chiqindilari tashlanishi qanday oqibatlarga olib kelishi hamda atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilganligi holatlari bo‘yicha manfaatdor tomonni aniqlab, yuqoridagi holatdagiday tegishliligi bo‘yicha chora ko‘rilishi lozim.

Mazkur hududda hech qanday faoliyatni amalga oshirish uchun davlat ekologik ekspertizasining xulosalari berilmagan.

Kengash a‘zolarining yuqorida qayd etilgan masala bo‘yicha bildirgan fikrlari va xulosalari ushbu masalaga ham taalluqli hisoblanadi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala “UZSUNGWOO” MChJ shaklidagi QK tomonidan **yengil avtomobillar kuzov qismining shtamplangan butlovchi qismlarini ishlab chiqarish** faoliyati bo‘yicha korxona mas‘ul xodimlari ZOOM orqali onlayn qatnashib, taqdim qilingan loyiha hujjatlaridagi texnologik jarayonlar

to'g'ri ko'rsatilganligini tasdiqlashib, lekin korxona o'z faoliyati davomida atrof-muhitga salbiy ta'siri yuqori darajada xavfli emasligi, atmosferaga chiqaradigan tashlamalarni, yer usti suv manbalari yoki joy relyefiga ifloslantiruvchi moddalar oqovalarni oqizmasligi, ishlab chiqarishda atrof-muhit va fuqarolar sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi sababli, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarorining 1-ilovasi "Davlat ekologik ekspertizasidan o'tkaziladigan faoliyat turlarining ro'yxati"ga muvofiq, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III-toifasiga o'tkazib berishni so'rashdi.

"UZSUNGWOO" MChJ shaklidagi QK faoliyati bo'yicha Markazning bosh eksperti **A.Jdanov** va komissiya a'zolari **"TIQXMMI"** MTU "Ekologiya va suv resurslarini boshqarish" kafedrası katta o'qituvchisi, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori **R.Razzaqov**, Sog'liqni saqlash vazirligi SEO va JS qo'mitasi, sanitariya gigiena boshqarmasi bosh mutaxassisi **A.Ko'charovlar** avtomobillar kuzov qismining shtamplangan butlovchi qismlarini ishlab chiqarish faoliyati atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I-toifa 17-bandiga (Mashinasozlik sanoati (aviasozlik, vagonsozlik, avtomobil, traktor, motor ishlab chiqarish va boshqalar) mansubligi haqida fikr bildirishdi.

Shu bilan birga, Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish boshqarma boshlig'i **F.Shadmanova** **"UZSUNGWOO" MChJ shaklidagi QK** tomonidan Farg'ona shahri hududi 6,6 ga yer maydonida atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning **I-toifa 17-bandi bilan taqdim qilingan loyiha** hujjatlariga quyidagi davlat ekologik ekspertizasining **ijobiy xulosalari berilganligini ma'lum qildi:**

- korxonaning ishlab chiqarish hajmi 2,4 mln dona COBALT, GENTRA, NEXIA-3 avtomobillarining butlovchi qismlarini issiq va sovuq shtamplama payvandlash faoliyati uchun atrof-muhitga ta'sirni baholash (ZVOS) loyihasiga 2021-yil 14-iyunda 04-01/10-08-998-son bilan;

- "Ifloslantiruvchi moddalar tashlamalarini atmosferaga chiqarishning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdori" (TChM) meyoriy loyiha hujjatiga 2022-yil 7-yanvarda 04-01/10-08-26-son bilan;

- "Chiqindilarning hosil bo'lishi va joylashtirilishining ekologik me'yorlashtirish" (ChChM) meyoriy loyiha hujjatiga 2022-yil 7-yanvarda 04-01/10-08-28-son bilan;

- korxonaning shtamppayvand mahsulotlari ishlab chiqarish sexida yangi payvandlash va shassi yig'ish uchastkasini tashkil qilish uchun taqdim qilingan atrof-muhitga ta'sirni baholash (ZVOS) loyihasiga 2025-yil 20-martda 01-02/01-4035-son bilan davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosalari berilgan.

Markaz bosh eksperti A.Jdanov taqdim qilingan loyiha hujjatlari va berilgan xulosalarda korxonaning ish jarayonida asosan foydalaniladigan dastgohlar va ishlab chiqarish jarayoni quyidagicha tavsiflangan:

ishlab chiqarish texnologiyasi tavsifi bo'yicha obyekt faoliyati uchun 930 gradus va undan ortiq qizdirish quvvatiga ega bo'lgan rolikli pech, quvvati 110 tndan va 1200 tngacha bo'lgan 39 ta gidravlik press, "3D" rusumli lazerli kesish uskunasi, gilyotin qaychi, payvandlash va boshqa kerakli uskuna va jihozlar o'rnatilgan.

Ishlab chikarish jarayonida bir yilda 50 ming tonna metall list va 23,71 tonna payvandlash simi kabi xom-ashyolar ishlatiladi.

Sexda buyurtma asosida ZAO "General Motors"ga presslash (qizdirish) yo'li bilan avtomobil kuzov detallarini ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan.

Loyihaga binoan, obyekt faoliyati natijasida atmosfera havosiga 18 ta manbalar orqali yiliga 9 turdagi jami 3,29 tonna ifloslantiruvchi moddalar ajralib chiqadi. Tashlamalarning asosiy ulushi uglerod oksidi – 2,23 t/yil, temir (III) oksidi – 0,49 t/yil, azot (IV) oksidi – 0,458 t/yil, azot (II) oksidi – 0,074 t/yil, marganes (IV) oksidi – 0,02 t/yil va oltingugurt (IV) oksidi – 0,008 t/yil hissasiga to'g'ri keladi. Qolgan xrom (IV) oksidi, benz(a)piren va metall changi kabi moddalar 0,1 tonnadan kam tashlanishi kuzatiladi.

Hosil bo'luvchi chiqindilar miqdori – 1595,696 tn/yil va oqova suvlar miqdori – 40,8 ming m³/yil tashkil etishi haqida aytib o'tildi. Korxonaning asosiy faoliyati avtomobilsozlik sanoati uchun extiyot qismlarni ishlab chiqarishdan iborat ekanligi kengash a'zolari tomonidan gapirib o'tildi.

Muhokama etilayotgan ikkinchi masala yuzasidan davlat ekologik ekspertizasi markazi Bosh direktorining birinchi o'rinbosari **T.Aytmuratov** yuqorida aytilgan fikrlar bo'yicha ovozga qo'ydi va Ekspertlar kengashi a'zolari avtomobillar kuzov qismining shtamplangan butlovchi qismlarini ishlab chiqarish faoliyati **atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I-toifa 17-bandiga taalluqligini** bir ovozdan ma'qullashdi.

Navbatdagi "NEOLIT" XK tomonidan toshga ishlov berish sexi (marmar plitasi, toshlarni qayta ishlash) faoliyati bo'yicha Korxona rahbari tomonidan mavjud texnik uskunalar va texnologik jarayon hamda tayyor mahsulot yuzasidan tushuntirishlariga asosan marmar, granit kabi tabiiy toshlarga ishlov berish, kesish, ularni yelim orqali to'rga yopishtirish keyin quritish uskunasi quritilishi natijasida qurilishda foydalaniladigan pardozlash materiallarini ishlab chiqarish faoliyatini yoritib berdi.

Markazning Boshqarmasi boshlig'i **F.Shadmanova** va komissiya a'zolaridan Sog'liqni saqlash vazirligi SEO va JS qo'mitasi, sanitariya gigiyena boshqarmasi bosh mutaxassisi **A.Ko'charovlar** marmar, granit kabi tabiiy toshlarga ishlov berish, kesish, ularni elim orqali to'rga yopishtirish keyin quritish uskunasi quritilishi natijasida qurilishda foydalaniladigan pardozlash materiallarini ishlab chiqarish faoliyati **atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III-toifa, 31-bandiga** (Qurilishda foydalaniladigan pardozlash materiallarini ishlab chiqarish) mansubligi haqida fikr bildirishdi.

Muhokama etilayotgan uchinchi masala yuzasidan davlat ekologik ekspertizasi markazi Bosh direktorining birinchi o'rinbosari **T.Aytmuratov** yuqorida aytilgan fikrlar bo'yicha ovozga qo'ydi va Ekspertlar kengashi a'zolari marmar, granit kabi tabiiy toshlarga ishlov berish, kesish, ularni yelim orqali to'rga yopishtirish keyin maxsus uskunada quritish faoliyati **atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III-toifa, 31-bandiga taalluqligini** bir ovozdan ma'qullashdi.

Bugungi Kengash muhokamasiga qo'yilgan oxirgi masala yuzasidan komissiya a'zolari Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, qurilish va atrof-muhit muhandisligi kafedrasida professori **Z.Sattorov**, "TIQXMMI" MTU

“Ekologiya va suv resurslarini boshqarish” kafedrasida katta o‘qituvchisi, Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori **R.Razzaqovlar** o‘z fikrlarini bayon etib, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarorida shaharsozlik hujjatlarini davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkazish tartibi belgilanganligi haqida o‘zlarining fikrlarini bildirishdi.

Yuqoridagi masalalar yuzasidan Ekspertlari kengashi quyidagicha

ХУЛОСА ҚИЛАДИ:

1. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori talablari asosida 2024-yil 16-avgustda Qibray tumani, “Ilg‘or” MFY, hududida joylashgan “Qizil Sharshara” MChJga 01-02/11-1838-son bilan berilgan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganligi sababli, mazkur xulosani bekor qilish haqida tegishli sudga da’vo arizasi kiritilsin.

2. Toshkent tumani, “Sabzavot” MFY hududida **fuqarolarning o‘ziga tegishli texnikalari yordamida qurilish chiqindilari** tashlaganligi holati bo‘yicha aybdor tomonni aniqlab, qonunchilikda belgilanga choralar ko‘rish.

Kengash a’zolarining “Qizil Sharshara” MChJ tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar, “Sabzavot” MFY hududida qayd etilgan masala bo‘yicha ham taalluqli hisoblansin.

3. **“UZSUNGWOO” MChJ shaklidagi QK** tomonidan yengil avtomobillar kuzov qismining shtamplangan butlovchi qismlarini ishlab chiqarish faoliyati Vazirlar Mahkamasining “Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qaroriga 1-ilova “Davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkaziladigan faoliyat turlarining ro‘yxati”ga muvofiq, atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishning **I-toifa, 17-bandiga** (Mashinasozlik sanoati (aviasozlik, vagonsozlik, avtomobil, traktor, motor ishlab chiqarish va boshqalar) mansubligi belgilansin.

4. **“NEOLIT” XK** tomonidan marmar, granit kabi tabiiy toshlarga ishlov berish, kesish, ularni yelim orqali to‘rga yopishtirish keyin maxsus uskunada quritish faoliyati Vazirlar Mahkamasining “Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qaroriga 1-ilova “Davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkaziladigan faoliyat turlarining ro‘yxati”ga muvofiq, **atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishning III-toifa, 31-bandiga** (Qurilishda foydalaniladigan pardozlash materiallarini ishlab chiqarish) mansubligi belgilansin.

5. Davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkazish uchun taqdim qilinayotgan ko‘p va kam qavatli uy-joy qurilishi masalasida Vazirlar Mahkamasining “Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori talablari asosida amalga oshirilishi belgilansin.


6. Ekspertlar kengashi bayonnomasi nusxasi ma'lumot uchun manfaatdor tomonlarga yetkazilsin.

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
Qurilish va atrof-muhit muhandisligi
kafedrası professori



Z. Sattorov

TIQXMMI MTU "Ekologiya va suv resurslarini
boshqarish" kafedrası katta o'qituvchisi,
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori



R. Razzakov

Sog'likni saqlash vazirligi SEO va JS
qo'mitasi, sanitariya gigiena boshqarmasi
bosh mutaxassisi



A. Ko'charov

Toshkent davlat agrar universiteti
Ekologiya va botanika kafedrası mudiri, dotsent



K. Buxorov

"Davlat ekologik ekspertizasi markazi" DM
Bosh direktorning birinchi o'rinbosari



T. Aytmuratov

Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish
Boshqarma boshlig'i



F. Shadmanova

Davlat ekologik ekspertizasi markazi ekologik
ekspertizasini o'tkazish bo'limi, bosh eksperti



A. Jdanov

Davlat ekologik ekspertizasi markazi ekologik
ekspertizasini o'tkazish bo'limi, bosh eksperti



M. Malishev